

NORDIC LIFE | 2023



1 Muloqotlar
Choraklik hisobotlar

2 Muzokaralar
Jarayonlar tahlili

3 Munosabatlar
Muvaffaqiyat omili

**XALQARO NORDIK
UNIVERSITETI**

**NORDIK HAYOTI
NORDIC LIFE**

Toshkent - 2023

NORDIK HAYOTI/NORDIC LIFE

**Xalqaro Nordik universiteti rektori
Sh.Mustafakulov tahriri ostida**

Nashrga tayyorlaganlar:
M.Isaqova, O.Rahimberdiyev, R.Shodmonov

Xalqaro Nordik universiteti media markazida tayyorlangan “Nordic Life”ning 3-faslida 2023-yilning mart, aprel, may oylarida universitetda tashkil etilgan uchrashuvlar, nufuzli delegatsiyalar tashriflari, o‘quv jarayonlaridagi yangiliklar va talabalar hayoti aks ettirilgan.

Ushbu sonda Finlandiya bilan amalga oshirishga erishilgan “Work and travel” dasturi ijrosi hamda talabalarning akademik va noakademik hayoti bilan tanishishingiz mumkin.



INTILGANGA TOLE YOR!

WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!



KIRISH

Ilm har qanday yangilik asosi, taraqqiyotni kafolatlovchi muhim qurol. Bugun Xalqaro Nordik universiteti talaba-yoshlarning ilmiy salohiyatini yuksaltirishda bu quroldan unumli foydalanmoqda.

Universitet o'z ta'lim tizimida madaniy an'analar va milliy xususiyatlarni mujassam etish barobarida, Finlandiyaning noyob va muhim ta'lim tajribalariga tayanmoqda hamda sog'lom raqobat sharoitida yuqori natijalarga erishishga astoydil kirishmoqda. Zero, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish tajriba almashish imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, aniq maqsad, aniq reja asosida ish olib borish sohaviy siljishlarga xizmat qiladi. Talabalar almashish, stajirovkaga jo'natish, "Work and travel" dasturlarini yo'lga qo'yish amaliyoti shular jumlasidan.

Shimoliy Yevropa tajribalarini hisobga olgan holda, universitetda yuqori malakali kadrlar tayyorlash, o'quv jarayonining ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liqligini kuchaytirishga yuksak e'tibor berilmoqda. Siz varaqlab turgan "Nordic Life"da Nordik tomonidan mamlakatimizda ilk bor talabalarning Finlandiyaga ish va sayohati tashkillangani, ushbu xorijiy davlatda va bevosita universitetning o'zida xalqaro o'quv kurslari tashkil etilgani kabi hamkorlik samarali yoritilgan.



"Nordic Life" orqali nufuzli delegatsiyalar tashriflari, xalqaro oliygohlar bilan hamkorlik, taniqli insonlar bilan qiziqarli uchrashuvlar, o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etish, Axborot-resurs markazini yangi adabiyotlar bilan boyitish, ilmiy o'sish va yangilanish jarayonlari, talabalar yutuqlari va ustozlarga minnatdorchilik maktublari – universitetning bir chorakdagi qizg'in hayoti bilan yaqindan tanishishingiz mumkin.

Sherzod Mustafakulov

*Xalqaro Nordik universiteti rektori,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

MUNDARIJA

Kirish	3
Toshkentning diqqatga molik maskanlariga – mazmunli sayohat	4
Italiyaning nufuzli universiteti bilan hamkorlik o'rnatildi	5
XNU faoliyati - "Учитель Узбекистана" muxbirlari nigohida	5
G'oyalar generatori bilan qiziqarli uchrashuv	6
Xotin-qizlarimiz doimo ehtiromda	6
Rektor va talabalar muloqoti	7
Yakuniy nazorat haftaligida	7
Ustozimiz – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari safida	8
Professor-o'qituvchilarimiz BOS texnologiyalarini qo'llash tajribasiga ega bo'ldilar	8
Oliygohimiz "Биосвязь" adabiyotlari va BOS kompleksi bilan jihozlandi	8
Xalqaro Nordik universiteti pochtasidan...	9
Oliy ta'limga oid eng yangi metodik qo'llanmalar – XNUda	10
"Finnish Industries" bosh direktori – universitetimiz mehmoni	10
Gazetalarni varaqlaganda	11
Huquq ustuvorligini ta'minlash: Finlyandiya tajribasi	11
XNU Kengashining 5-son yig'ilishi bo'lib o'tdi	12
Yangi O'zbekistonning yangilanayotgan Konstitutsiyasi: inson - jamiyat - davlat konsepsiyasi amalda	12
Xalqaro o'quv kursi: Qozog'istonlik pedagoglarning malakasi oshirildi	13
Taniqli tadbirkordan mahorat darsi	15
Qiziqarli dars: bilim va mahorat uyg'unligi	15
Finlyandiya mo'jizasi: uning O'zbekiston uchun manfaatli jihatlari nimalarda namoyon bo'lmoqda?	16
"Sehriyo" o'quvchilari universitetimizda	16
Innovatsion loyihalar tayyorlash mexanizmlari o'rganildi	17
Qo'qon universiteti va Xalqaro Nordik universiteti hamkorligida "Xalqaro moliya" darsligi nashr etildi	17
Bizni tanlab, adashmaysiz!	18
Shimoliy Yevropa mamlakatlari bilan media-hamkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda	19
Navbatdagi press-tur bekati Shvetsiya bo'ldi	19

MUNDARIJA

Xalqaro o'quv kursining 3-fasli tashkil etildi	20
Finlandiyalik yoshlar vakillarining O'zbekistonga orziqib kutilgan tashrifi bo'lib o'tdi	20
XNUda xalqaro talabalar safi kengayadi	21
XNU hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'rtasida Anglashuv memorandumini imzolandi	22
Finlandiya ta'lim tizimi keng o'rganildi	22
Trashion show tashkil etildi	23
Aqliy mehnat jismoniy harakat bilan uyg'unlashtirildi!	24
XNU jamoasi bir oila bo'lib ertangi kun uchun ovoz berdilar!	24
XNU tomonidan "Matematika fan olimpiadasi" o'tkazildi	25
Ta'lim integratsiyalashuvi doirasida memorandumlar imzolandi	25
Innovatsion yechimlar - ta'lim samaradorligi asosi	26
Amerika universitetlari bilan hamkorlik o'rnatiladi	26
Fin kompaniyalarining O'zbekistondagi faoliyati kengayadi	26
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi bilan hamkorlik memorandumini imzolandi	27
"Eng yaxshi video-monolog ko'rik-tanlovi g'oliblari aniqlandi!"	27
Finlandiyada "Work and Travel": professionallik va daromad sari yo'l	28
Xotira uyg'unsa go'zaldir...	28
Xotira uyg'unsa go'zaldir...	29
Madaniy xilma-xillik - talabalarimiz talqinida	29
Surxondaryo ta'lim delegatsiyasi – Finlandiyada	30
Xalqaro Nordik universiteti Ilmiy seminarida ilk himoya ishi yoqlandi	30
Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili XNUga tashrif buyurdi	31
Helsinki intensiv trening tashkil etildi	31
XNUda BMTning O'zbekistondagi jamoasi bilan trening o'tkazildi	32
Sizni Xalqaro Nordik universiteti rektori eshitadi !	32

Toshkentning diqqatga molik maskanlariga – mazmunli sayohat |2-mart|

Bahor nafasi kezayotgan fursatlarda sirtqi ta'lim shaklida taxsil olayotgan talabalar uchun poytaxtimizning diqqatga sazovor manzillari, xususan Adabiyot va ma'rifat maskaniga sayohat tashkil etildi. Xiyobondagi ijodiy muhitdan bahra olinib, adabiy suhbatlarda atoqli adiblarning hayoti va ijodlariga nazar solindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasiga sayohat uyushtirildi. Talabalarimiz majmuaning rezidensiya zallarida joylashgan muzey eksponatlari – fotosuratlar, hujjatlar, birinchi prezidentning to'plamlari, uning hayotiga oid ko'plab ma'lumotlar bilan tanishdilar.



Talabalar O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi va "Magic city"ga tashrif davomida yangi ma'lumotlar hamda zavqli taassurotlar oldilar.



Italiyaning nufuzli universiteti bilan hamkorlik o'rnatildi |2-mart|

XNU va Italiyaning Trento universiteti rahbariyati o'rtasida Anglashuv memorandumini imzolandi.

Kelgusida har ikki universitet o'rtasida professor-o'qituvchilar va talabalar almashish, qo'shma dasturlarni amalga oshirish va ilmiy tadqiqotlar olib borish ko'zda tutilmoqda.

Ma'lumot o'rnida, "QS World University Ranking 2023" tomonidan baholangan dunyodagi 1400 dan ortiq universitet ro'yxatida Trento universiteti 457-o'rinni egallaydi. Didaktika, tadqiqot va xalqaro munosabatlarda salmoqli natijalarga ega.



XNU faoliyati - "Учитель Узбекистана" muxbirlari nigohida |2-mart|



Gazetada "Финский опыт в школах Узбекистана" sarlavhali maqola nashr etildi.

Maqolada Xalqaro Nordik Universitetida O'zbekiston va Finlyandiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo majlisi doirasida tashkil etilgan "Finlyandiya ta'lim kechasi" yoritilgan.

Yurtimizdagi maktablarda Finlyandiya ta'lim tajribasi qo'llanilishining ahamiyatli jihatlari qayd etilgan.

G'oyalar generatori bilan qiziqarli uchrashuv |6-mart|

"MPMG" media markazi rahbari **Ulug'bek Ismatov**ning talabalarimiz bilan erkin muloqoti bo'lib o'tdi.



Tadbirkor, g'oyalar generatori va ijodkor o'z treningida resurslarsiz g'oyasini amalga oshirishga kirishishdan media markazi tashkil etish va nomdor mijozlar bilan hamkorlikka qadar bo'lgan faoliyati haqida so'zlab berdi. Talabalarga data science, aql markazlari, g'oyalar generatsiyasi va muvaffaqiyatli startaplar siri haqida qimmatli ma'lumotlar berdi.

Xotin-qizlarimiz doimo ehtiromda |6-mart|

Universitetimizda erkak ustozlar va talabalar tomonidan **8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuniga** bag'ishlab **"Sen aziz va muqaddas ayol"** bayram tadbiri tashkil etildi.

Anjumanda jamiyat taraqqiyoti, avlodlar axloqiy kamoloti bevosita munis ayollarga bog'liqligi e'tirof etildi. Universitet rivoji yo'lida mehnat qilayotgan barcha ustozlarga eng ezgu tilaklar yo'llandi.

Bayramda "Muqaddas ayol" qo'shig'i jo'rlikda kuylanib, barcha xotin-qizlar yuziga tabassum, chehralariga mehr va iliqlik, bag'ishlandi.



Rektor va talabalar muloqoti |6-mart|

Universitetimiz rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulovning barcha yo'nalishlar talabalari bilan samimiy muloqoti yo'lga qo'yilgan.

Uchrashuvda talabalarga o'qish, yakuniy nazorat ishlarini topshirish va ilmiy faoliyatga doir ko'plab zarur ma'lumotlar beriladi.



Yakuniy nazorat haftaligida |10-mart|



XNUda ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliq hosil bo'lishining oldini olishga e'tibor qaratilmoqda.

Nazorat ishlari orqali talabalarda tegishli bilim, ko'nikma va malaka shakllanganlik darajasi aniqlanib, tahlil qilib boriladi.



“Nordic” ta'lim jarayonini boshqarish platformasi davlat reyestriga kiritildi



Ustozimiz – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zolari safida |10-mart|



Universitetimizning Bolalar adabiyoti fani o‘qituvchisi **Sitorabonu Shomurodova** (PhD) ilm va ijodda peshqadam ustozlarimizdan.

U "Zomin-2021" tanlovi (respublika seminari) g‘olibi, "Yalpizlarga oshiq qiz" she'riy to‘plami muallifidir. Uning she'rlari "Yurtni sevmog‘ saodati", "Bog‘u bo‘stonim Vatan", g‘azallari esa "G‘azal g‘izoli" bayozlaridan joy olgan.



Quvonarlisi, Sitorabonu Shomurodova 8-mart - "Xalqaro xotin-qizlar kuni" munosabati bilan bir guruh ayol ijodkorlar safida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zolariga qabul qilindi.

Professor-o‘qituvchilarimiz BOS texnologiyalarini qo‘llash tajribasiga ega bo‘ldilar |11-mart|

Xalqaro Nordik universiteti biofeedback texnologiyalarini ishlab chiqarish va joriy etishda jahonning yetakchisi bo‘lgan "Биосвязь" kompaniyasi bilan hamkorlik qilmoqda.

Universitetimiz dotsenti **Nargiza Ergasheva** va Sayyora Iskanderova Sankt-Peterburgda o‘tkazilgan "Psixoemotsional" BOS kompleksining "Biofeedbackdan foydalanadigan biotexnika va tibbiy asboblarni hamda tizimlar" mavzusidagi konsultativ seminarida (72 soatlik) malaka oshirdilar.

Ustozlarimiz "Биосвязь" tomonidan ishlab chiqarilgan apparat va dasturiy ta‘minot tizimlari bilan ishlash ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirdilar va Sertifikatni qo‘lga kiritdilar.



Oliygohimiz "Биосвязь" adabiyotlari va BOS kompleksi bilan jihozlandi |11-mart|



Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari bilan hamkorlik qiluvchi "Биосвязь" tomonidan ishlab chiqilgan biofeedback tizimli apparat va adabiyotlar endi universitetimizda mavjud.

Sankt-Peterburgda kompaniya mutaxassislari tomonidan universitetimiz o‘qituvchilarining malakasi oshirildi. Shuningdek, ta‘lim jarayonida zarur vazifalarni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi BOS kompleksi va ilmiy ishlanmalar keltirildi.

Xalqaro Nordik universiteti pochtasidan...

Assalomu alaykum, hurmatli universitetimiz rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov, jonkuyar ustozlar va qadri jamoa!

Biz Boshlang'ich ta'lim (sirtqi) **1-MBT-22** guruh talabalari universitetimizdan uyga kuchli his-xayajon va qalbimiz to'la faxr, quvonch bilan qaytdik. Sizlardan olgan bilimlarimiz bilan sessiyadan yaxshi natijalar bilan o'tishimiz bizlarni bir xursand qilgan bo'lsa, biz - talabalarga bo'lgan hurmat-e'tibor ko'nglimizni tog'dek ko'tardi.

O'qishning birinchi kunidan berilgan esdalik sovg'alari, kursdoshlar davrasidagi mazali tushlik esda qolarli bo'ldi. Ayniqsa, sessiyadan so'ng poytaxtimiz markazidagi **"Adiblar xiyoboni", Islom Karimov nomidagi majmua** va **"Magic city"**ga uyushtirilgan tashrif - sayohat orqali katta taassurotlar oldik. Universitetda kursdoshlarimiz bilan yanada yaqindan tanishib, vaqtimizni mazmunli o'tkazdik.

Fursatdan foydalanib, XNU rahbariyati va jamoasiga o'zimizning chuqur minnatdorchiligimizni bildiramiz!

**Hurmat bilan 1-MBT-22 guruh talabalari nomidan
Nodira Umarova.**

Assalomu alaykum!

Men Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiatosh tumanida istiqomat qilaman. Bugun quvonchim cheksiz! Chunki men orzuyimga yetdim - talabalik baxtiga muvassar bo'ldim. Toshkent shahridagi Xalqaro Nordik Universitetining talabasi bo'ldim.

Biz - talabalarni universitetda juda yaxshi, yuksak madaniyat va samimiy kutib olgan oliygohimiz jamoasi va hurmatli rektorimizga o'z minnatdorchiligimni bildirib qolaman.

Ushbu quvonchli kunda tilaklarim bir olam. Sizlar uchun dunyodagi eng ezgu tilaklar jam bo'lganda ham kamdek. Ayniqsa, poytaxtimiz bo'ylab sayohat bizda juda yaxshi taassurot qoldirdi. Barcha-barchasi uchun katta rahmat, deb qolamiz!

Fursatdan foydalanib, barcha ustozlarimizni yaqinlashib kelayotgan Navro'z bayrami bilan tabriklayman!

**XNU 1-MMT-22 guruh talabasi
Baxtigul Vaysova**

Xalqaro Nordik universitetida olgan taassurotlarimiz beqiyos. **Barchasi oliy darajada!**

Imtihonni qo'rquvsiz topshirishimizda biz tolibi ilm vakillari uchun yetarlicha (va hatto ortiq darajada) qulayliklar yaratib berildi.

Barchasi uchun, avvalo XNU ustozlari, qabul bo'limi mas'ullari, imtihon nazoratchilari, ayniqsa sayohat chog'ida va universitetimizda esda qolarli lahzalarimizni manguликka muhrlagan foto-montaj ustalariga ham guruhimiz talabalari nomidan alohida minnatdorchilik izhor etaman.

Kelgusida universitetimiz jamoasi ekan navnihollar, albatta bo'y cho'zib, mo'l hosil - meva berishiga ishonaman!

HAMMANGIZGA RAHMAT!

**XNU 1-MMT-22 guruh talabasi
Gulchehra Elamasova**

Oliy ta'limga oid eng yangi metodik qo'llanmalar – XNUda |13-mart|

Universitetimizga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish markazi tomonidan yangi ishlab chiqilgan metodik qo'llanmalar to'plami tuhfa etildi.

"O'zbekistonda oliy ta'lim: 100 savolga 100 javob" metodik qo'llanmasida ta'lim olish shakllari va kadrlar tayyorlash sohasiga oid barcha dolzarb savollarga javoblar mavjud. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari uchun metodik qo'llanmalar to'plamlarida universitet faoliyati hamda ustozlar va talabalar uchun zarur ilmiy tavsiyalar, mustaqil ta'limni tashkil etish tartiblari haqida batafsil ma'lumotlar jamlangan.



"Finnish Industries" bosh direktori – universitetimiz mehmoni |14-mart|



Universitetimizga Finlyandiyaning **"Finnish Industries"** Sharqiy ofisi bosh direktori janob **Lauri Veijalainen** tashrif buyurdi.

Universitetimiz rahbariyati bilan uchrashuvda mutaxassislarga qo'yilayotgan xalqaro talablar xususida fikr almashildi va o'zaro hamkorlik yo'nalishlari belgilab olindi.



Ma'lumot o'rnida, sharqiy ofis MDH davlatlarining bozorlari bo'yicha eng yuqori malakali va eng yaxshi bilimga ega kompaniyalari manfaatlarini ifodalaydi. 18 ta mamlakatda o'zining barqaror biznesiga ega va 1000 nafarga yaqin mutaxassislarni ish bilan ta'minlaydi.

Gazetalarni varaqlaganda |25-mart|

Dunyo olimlarining qaydlariga ko'ra, sayyoramizda global tus olgan inqirozlar jami 27 tani tashkil qiladi.

Xalqaro Nordik universiteti olimlari, mutaxassislari tomonidan mazkur inqirozlarning kelib chiqish sabablari, davlatlar tomonidan ularni bartaraf etish maqsadida ko'rilgan chora-tadbirlarga oid tarixiy faktlar o'rganib chiqildi. Ushbu ma'lumotlar **"Xalq so'zi"** gazetasida **"Dunyo inqirozlari: sabablar, oqibatlar va yechimlar"** rukni ostida nashr etilmoqda.



Gazetaning 25-mart kungi sonida Sherzod Mustafakulov va Qobiljon Isayevlar muallifligida nashr etilgan "Lola jazavasi" nomli maqolada gollandiya lolamaniyasi tafsilotlari chop etildi.

Huquq ustuvorligini ta'minlash: Finlyandiya tajribasi |28-29-mart|



Poytaxtimizda 28-29-mart kunlari Finlyandiyaning **Xelsinki universiteti** Huquq ustuvorligi markazi, Toshkent davlat yuridik universiteti va Xalqaro Nordik universiteti hamkorligida **"Huquq ustuvorligini ta'minlash: Finlyandiya tajribasi"** mavzuda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Konferensiyada Helsinki universiteti Huquq ustuvorligi markazi mutaxassislari ma'ruzachi sifatida ishtirok etishdi.

Konferensiya doirasida qonun ustuvorligi bo'yicha dunyoda peshqadam davlat – Finlyandiya tajribasi keng o'rganildi.

Kengashuv orqali va qo'shma ta'lim dasturlari, qonunchilik institutlarining funksional imkoniyatlari doirasida qonun ustuvorligi va demokratik jarayonlarni mustahkamlash tashabbusi ilgari surildi.

XNU Kengashining 5-son yig'ilishi bo'lib o'tdi |30-mart|

Kengash yig'ilishi kun tartibidan universitet faoliyatiga oid o'nga yaqin dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

Xususan, yakuniy imtihon natijalari, LMS platformasi tahlili bo'yicha mas'ul departamentlar boshliqlarining hisobotlari tinglandi va mustaqil ta'limni yanada sifatli tashkil etish chora-tadbirlari belgilab olindi.

Shuningdek, kun tartibidan o'rin olgan **"Work and travel"** dasturi bo'yicha talabalarni saralash va ularning otanalari bilan shartnomalar imzolash, mustaqil izlanuvchilikka qabul qilingan nomzodlarning rejasini tasdiqlash hamda yagona elektron tizimga yuklash to'g'risidagi va boshqa masalalar ko'rib chiqildi.



Yangi O'zbekistonning yangilanayotgan Konstitutsiyasi: inson - jamiyat - davlat konsepsiyasi amalda |31-mart|



Universitetimizda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi raisi o'rinbosari, professor Durbek Ahmedov ishtirokida ushbu mavzuda targ'ibot tadbiri o'tkazildi.



Uchrashuvda deputat tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiya yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligiga xizmat qilishi, eng avvalo **"Inson qadri uchun"** g'oyasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangani qayd etildi.

Xalqaro o'quv kursi: Qozog'istonlik pedagoglarning malakasi oshirildi |1-apr.|



1-5-aprel kunlari Xalqaro Nordik universiteti, **DiDacTEC** va **NORDWAY** ta'lim markazlari hamkorligida 20 nafar **Qozog'iston Respublikasi** maktab direktorlari va pedagoglari uchun xalqaro o'quv kursi tashkil etildi.

"O'quv jarayoni sifatini oshirishning samarali vositalari: maktablarda raqamli infratuzilma va o'qituvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish va xalqaro PISA tadqiqoti doirasida o'qitish usullari" mavzusidagi xalqaro o'quv kursida XNU rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov ta'lim sifatini oshirishda xalqaro tajribalarning ahamiyati xususida to'xtaldi.

Xalqaro o'quv kursida ta'limdagi vositalar va elektron kontentlardan foydalanishning afzalliklari yetkazildi. XNU katta o'qituvchisi **Odilbek Kattayev** o'quv kursi ishtirokchilariga maktablarda raqamli blokni baholashga yondashuv: raqamli infratuzilma, raqamli o'qitish usullarini ishlab chiqish borasida saboqlar berdi.

Finlyandiyaning "**DiDacTEC**" ta'lim markazi direktori, ta'lim eksperti **Petri Lunascorpi** "**Finlyandiya maktab tizimi**" mavzusidagi ma'ruzasida kurs tinglovchilarini fin ta'lim tajribalari bilan tanishtirdi.

Bugun xalqaro o'quv kursi tinglovchilariga **MMTDMQTMOI** katta o'qituvchisi Mavluda Isxakova tomonidan ta'lim jarayonidagi turli ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar borasida master-klass o'tkazildi.

Shuningdek, universitetimiz dotsenti, BOS laboratoriyasi mudiri Nargiza Ergasheva hissiy intellektni rivojlantirish borasida trening o'tkazdi. Mahorat darslari amaliy mashqlar asosida qizg'in o'tmoqda.



Xalqaro o'quv kursida tinglovchilarga "Образование для Новой Эры" (Yangi davr uchun ta'lim) xalqaro laboratoriyasi asoschisi, TRIZ bo'yicha ekspert **Anatoliy Gin** zamonaviy o'qituvchining pedagogik texnika vositalari bo'yicha jahon tajribalaridan saboq berdi.



Qozog'iston Respublikasining pedagoglari uchun xalqaro o'quv kursi doirasida poytaxtimizdagi **"Sehriyo"** nodavlat maktabiga tashrif uyushtirildi.

O'quv-amaliy tashrifda maktab faoliyati bilan tanishildi. O'quvchilarga davlat ta'lim standartlari va ijtimoiy, mantiqiy, badiiy, sport va texnik jihatdan rivojlantiruvchi xalqaro ta'lim berayotgan zamonaviy maktabning o'ziga xos jihatlari o'rganildi.



Kursda malaka oshirgan 21 nafar tinglovchiga Sertifikat topshirildi.



Taniqli tadbirkordan mahorat darsi |4-apr|

Universitetimizga MFaktor, EduOn kabi qator loyiha va kompaniyalar asoschisi Husan Mamasaidov tashrif buyurdi.

Biznesda moliyaviy strategiyalar va marketingning ahamiyati qanday? Savdo va biznes xavfsizligini samarali himoyalashning qanday ishonchli yo'llari bor?

"Biznesda va shaxsiy hayotda muvaffaqiyat hamda mag'lubiyat omillari" mavzusidagi mahorat darsida talabalar o'zlarining shu kabi ko'plab savollariga javob oldilar.

Mahoratli biznes trener o'z tajribalari asosida yoshlarga tadbirkorlik va hayot darsini berdi.



Qiziqarli dars: bilim va mahorat uyg'unligi |10-apr|



Universitetimizning Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi **Gulnoza Aripova** va Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari bugungi darsni maroqli va samarali o'tkazdilar.

Ingliz tilida olib borilgan darsda **"Qizil shapkacha"** (Little Red Riding Hood) ertagi asosidagi sahna ko'rinishi namoyish etildi. Talabalarning ingliz tilidan egallagan bilimlari bilan birga sahna madaniyati va aktyorlik mahoratlari uyg'unlashgan dars qiziqarli va esda qolarli o'tdi.

Finlyandiya mo'jizasi: uning O'zbekiston uchun manfaatli jihatlari nimalarda namoyon bo'lmoqda?



Mamlakatimizdagi barcha o'quv dargohlarida ta'limning birdek yangi sifat darajasiga ko'tarilishi – islohotlarning navbatdagi bosqichi hisoblanadi. Bu borada rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalariga tayanilmoqda. Xususan, Finlyandiya bilan ta'lim sohasida keng hamkorlik olib borilmoqda. Xalqaro Nordik universiteti ikki mamlakatni bog'lovchi platformadir.

"Xalq so'zi" va **"Народное слово"** gazetalarining bugungi sonida nashr etilgan rektorimiz Sherzod Mustafakulovning maqolasida Finlyandiya mo'jizasi va uning yurtimiz uchun manfaatli jihatlari xususida batafsil ma'lumotlar berildi.

"Sehriyo" o'quvchilari universitetimizda |12-apr|

Bitiruvchi-o'quvchilar universitetimizda mavjud imkoniyatlar bilan yaqindan tanishtirildilar. Xususan, ularga xalqaro ta'lim tizimi, "2+2", "3+1", "Student's exchange", "Work and travel" dasturlari haqida taqdimot qilindi.

Professor-o'qituvchilar o'quvchilarning qiziqish va maqsadlaridan kelib chiqib, Foundation kursi va universitetda ta'lim olish imkoniyatlari haqida keng tushuncha berdilar.



Innovatsion loyihalar tayyorlash mexanizmlari o'rganildi |13-apr.|



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi mutaxassisilari ishtirokida ilmiy seminar-trening o'tkazildi.




Seminarda davlat ilmiy dasturlari, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga oid hujjatlar, ilmiy loyihalar turlari va davlat buyurtmasi doirasida loyihalar mavzusini shakllantirish mexanizmlari ko'rib chiqildi. O'tkazilayotgan loyihalar tanlovlari haqida ham keng ma'lumotlar berildi.



Qo'qon universiteti va Xalqaro Nordik universiteti hamkorligida "Xalqaro moliya" darsligi nashr etildi |7-yan.|

Darslikda xalqaro moliyaga kirish, iqtisodiy modellar, xalqaro institutlar faoliyati – umumiy moliya munosabatlarning barcha jihatlari qamrab olingan. Darslikni o'qib-o'rganish davomida to'liq bandlik, davlat byudjeti, milliy daromad kabi yuzlab tayanch iboralarga sharhlar bilan ham tanishish mumkin.



Bizni tanlab, adashmaysiz!



Finlandiya tajribasi

Ta'lim sohasiga oid Finlandiya tajribasini to'g'ridan-to'g'ri o'rganish, seminar-treninglarda qatnashish imkoniyati



Ochiq muloqotlar

Universitet jamoasi va talabalar o'rtasidagi ochiq va erkin muloqotlar.



Xalqaro treninglar

Xalqaro darajadagi iqtisodchi mutaxassislar tomonidan zamonaviy treninglar, master-klasslarni tashkil etilishi hamda malaka oshirish kurslari



Zamonaviy adabiyotlar

Eng so'ngi xorijiy va fin adabiyotlari, zamonaviy darslik va qo'llanmalar



Maksus laboratoriyalar

"Бизнес-IT" adabiyotlari va BOS kompleksiga ega maksus laboratoriyalar



Elektron kutubxona

Xalqaro va mahalliy ta'lim resurslaridan keng foydalanish imkoniyati



Madaniy tadbirlar

Badiiy ko'ngilochar dasturlar, esda qolarli bayram kechalari, muhim sanalarga bog'liqlangan anjumanlar



Hayotiy master-klasslar

Muvaffaqiyatga erishgan insonlar bilan yaqindan suhbatlar



Yosh jamoa

Innovatsion, kreativ fikrlovchi professional jamoa



BARCHASI
Xalqaro Nordik universitetida...

Shimoliy Yevropa mamlakatlari bilan media-hamkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda |16-apr.|



"Xalq so'zi" gazetasi muxbirlari Xalqaro Nordik universitetining Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekani **Elshod Umarov** hamrohligida Shimoliy Yevropa mamlakatlari bo'ylab ijodiy safarda bo'ldilar.

Ijodiy guruh dastlab Latviya poytaxti Riga shahrida O'zbekistonning Latviyadagi elchisi bilan uchrashdilar. Poytaxt bo'ylab sayohat qilib, fotoreportaj tayyorlashga muvaffaq bo'ldilar.



Navbatdagi press-tur bekati Shvetsiya bo'ldi |16-apr.|

XNU va "Xalq so'zi" gazetasi vakillaridan iborat ijodiy guruh Skandinaviya yarim orolining sharqiy qismida joylashgan innovatsiyalar mamlakati - Shvetsiya Qirolligiga tashrif buyurdilar.

Delegatsiya O'zbekistonning Shvetsiyadagi diplomatik vakolatxonasida bo'ldi. Ilm-fanni moliyalashtirish bo'yicha jahonda barqaror bu mamlakatning e'tiborga molik joylaridan fotoreportaj tayyorlandi va ma'lumotlar to'plandi.

Helsinki! O'zining keng chiroyli ko'chalari, port, dengiz va eng asosiysi juda ham toza atmosferasi bilan har bir tashrif buyuruvchining qalbidan butun umrga joy oluvchi muhtasham shahar!

XNU dekani va "Xalq so'zi" ijodiy guruhi Yevropaning yashash uchun eng qulay mamlakatiga aylangan Finlyandiya poytaxti Helsinki shahridan fotoreportaj tayyorladilar.



Xalqaro o'quv kursining 3-fasli tashkil etildi |16-apr.|

Qozog'istonlik pedagoglar uchun *"Ta'lim jarayoni sifatini oshirishning samarali vositalari: maktablarda raqamli infratuzilma va xalqaro PISA tadqiqoti doirasida o'quvchilarning funksional savodxonligi va o'qitish usullarini rivojlantirish"* mavzusida xalqaro o'quv kursining 3-fasli tashkillandi.

"DiDacTEC" ta'lim markazi direktori, ta'lim eksperti Petri Lunascorpi kurs tinglovchilariga "Finlyandiya maktab tizimi" mavzusida ma'ruza qildi.

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti Mavluda Mutalipova qozog'istonlik pedagoglarning mahorati va ijodkorlik bo'yicha malakalarini oshirdi.

Hissiy intellekt va uni qanday yaxshilash mumkin? Xalqaro o'quv kursida tinglovchilar MTTDMQTMOI katta o'qituvchisi Mavluda Isxakovadan his-tuyg'ularni tashqi belgilarga qarab anglash va hissiy intellektni rivojlantirish borasida yangi bilimlar oldilar.

Dars taqdimot, videoroliklar ko'rish, guruh va juftlikda topshiriqlar ustida ishlash hamda muhokamalar bilan qizg'in o'tdi.



Finlandiyalik yoshlar vakillarining O'zbekistonga orziqib kutilgan tashrifi bo'lib o'tdi |17-apr.|

Universitetimizning yaqin hamkori **Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu (SYK)** maktabi o'quvchilari yurtimizga safarlarini poytaxtimizning keng, yashil va zamonaviy xiyobonlari, diqqatga sazovor joylariga sayohat bilan boshladilar. XNU ta'limda o'ziga xos "xab"ga aylanishni maqsad qilgan edi. Ushbu rejalar realikka aylanib bormoqda. Finlyandiya yoshlar vakillari Xalqaro Nordik universitetida ham bo'ldilar. Bu tashrif fin yoshlari uchun yangi bilim va tajribalar, qadriyatlar va tengdoshlari bilan fikr almashish kabi jihatlar bilan muhim ahamiyat kasb etdi.

Finlyandiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raysenyan va Finlandiyaning O'zbekistondagi faxriy konsuli **Alisher Jo'rayev** universitetimizga tashrif buyurgan fin yoshlari bilan samimiy suhbatda bo'ldilar. Uchrashuvda ustozlar tomonidan berilgan ta'lim tizimimiz va faoliyat yo'nalishlarimizga oid ma'lumotlar finlyandiya o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Ma'lumot o'rnida, Xalqaro Nordik universitetiga bir paytning o'zida 20 nafar Qozog'istonlik pedagog va Finlandiyaning uzoq yillik tarixga ega maktabidan 20 nafar 12-sinf o'quvchilari tashrif buyurishdi.



XNUda xalqaro talabalar safi kengayadi |18-apr.|

Universitetimizning ta'lim xizmatlari ko'rsatish geografiyasi qo'shni davlatlar sari kengaymoqda.

Qozog'iston Respublikasining **Ostona** shahrida davom etayotgan taqdimotlarimizda bakalavriat yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va xalqaro o'quv kurslarimiz kabi qator ta'lim imkoniyatlarimiz ko'p sonli maktablar direktorlari va abituriyentlarda katta qiziqish uyg'otmoqda.



XNU hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'rtasida Anglashuv memorandumi imzolandi |19-apr.|

Universitetimiz va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi **Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Akademik litseyi** rahbariyatlari o'rtasida Anglashuv memorandumi imzolandi.

Kelgusida universitet litseyi bitiruvchilarining XNUda **"Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar"**, **"Xalqaro biznes"** va **"Xalqaro huquq"** ta'lim yo'nalishlarida o'qishini tashkil etish, o'quvchilar uchun xalqaro va Yevropa ta'lim tizimi standartlari asosida qo'shma o'quv dasturlari tashkillashga kelishildi.

Shuningdek, binar ma'ruza va masofaviy darslar o'tkazish, **"Foundation"** maktabi bilan hamkorlikda tayyorlov kurslarining O'quv rejalarini ishlab chiqish, xorijda **"Yozgi maktab"** va **"Qishki maktab"** dasturlarini tashkil etish kabi hamkorlik yo'nalishlari belgilandi.



XNU va "Xalq so'zi" gazetasi ijodiy guruhining Kareliya AFUga rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi |20-apr.|



Delegatsiya a'zolari Kareliya universiteti rektori va jamoasi bilan uchrashdilar. Laboratoriyalar, onlayn o'quv muhiti va ta'lim texnologiyalari bilan tanishdilar. O'qitish uchun mo'ljallangan boshqa zamonaviy ob'ektlarga ham tashrif buyurdilar.

Tashrif ikki universitet va ikki davlat o'rtasidagi uzoq muddatli strategik hamkorlikni yanada mustahkamladi.

Finlandiya ta'lim tizimi keng o'rganildi |23-apr.|



Joriy yilning 24-aprel - 7-may kunlari Xalqaro Nordik universiteti tomonidan Finlandiyaning Helsinki, Jyväskylä, Kareliya va JAMK amaliy fanlar hamda pedagogika institutlari bilan hamkorlikda malaka oshirish kursi tashkil etildi.

XNUda Finlyandiyada malaka oshirish safari oldidan seminar-trening o'tkazildi. Unda yurtimizdagi 10 ta oliy ta'lim muassasasining 25 nafar rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi.

XNU prorektori Odil Qo'ysinov boshchiligidagi delegatsiya Finlandiyaning Helsinki shahriga yetib bordi. **O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Chirchiq va Jizzax davlat pedagogika universitetlari, Andijon, Namangan, Qo'qon, Buxoro, Navoiy, Nukus, Shahrisabz davlat pedagogika institutlari** vakillaridan iborat delegatsiya a'zolari ikki hafta davomida Finlandiya ta'lim tizimi va o'quv maqsadlari bilan yaqindan tanishdilar.



Jyväskylä universitetida o'tkazilgan trening va amaliy mashg'ulotlarda oliygoh faoliyati misolida oliy ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari, kredit modul tizimi va mustaqil ta'lim, raqamlashtirish jarayonlari, o'qitish metodikasi va interaktiv metodlarni qo'llash kabi dolzarb mavzular o'rganildi.



Finlandiya ta'lim tizimi keng o'rganildi |23-apr.|

Malaka oshirish kursi ikki hafta davomida yuqori saviyada o'tkazildi. Kurs davomida Finlandiyaning ta'lim ekspertlari ko'magida maktabgacha ta'lim, maktab, yuqori sinf va oliy ta'lim tizimlari hamda xalqaro baholash tizimi bilan tanishildi. Finlandiya bo'ylab bolalar va yoshlarning o'qishi uchun professional yordam beruvchi Valteri ta'lim va konsalting markazi tajribalari asosida inklyuziv ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi.

Karelia AF universiteti (rektori Petri Raivo) bilan yurtimiz OTMLari o'rtasida strategik hamkorlik mustahkamlanib, o'zaro Anglashuv memorandumlari imzolandi.

Finlandiyada malaka oshirish kursi qizg'in bahs-munozaralar, muhokamalarga boy o'tdi, yangi xorijiy bilim va ko'nikmalar egallandi. Kurs yakunida ishtirokchilar Sertifikatlar bilan taqdirlandilar.



Trashion show tashkil etildi |28-apr.|



Xalqaro Nordik universiteti "Star Kids International" fin ta'limiga asoslangan maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan birgalikda "Earth day" , ya'ni "Xalqaro yer kuni"ga bag'ishlangan amaliy tadbir - trashion show tashkil etdi.

Toshkent shahridagi Bobur nomidagi ekoparkda o'tkazilgan shoudan maqsad bolajonlarni murg'akligidan atrof muhitni asrash, qayta ishlanishi mumkin bo'lgan har qanday mahsulotlarni qayta ishlashga harakat qilishga o'rgatishdan iborat. Bu ta'lim-tarbiya jarayonida juda muhim bo'lib, bolalarga atrof-muhit bilan hamkorlikda o'sish, yaxshi munosabatda bo'lishni o'rgatadi.



Bu tadbir Xalqaro Nordik universitetining Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalar - bo'lajak pedagoglarning kasbiy mahoratlarini oshirishga qaratilgan amaliy sa'y-harakatlardan biri bo'ldi.

30-aprel kuni bo'lib o'tgan siyosiy tadbir - "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha referendum xorijiy davlatlarda ham katta qiziqish uyg'otdi.

Xalqaro Nordik universiteti vakili, "Xalq so'zi" va "Народное слово" gazetalarini tahririyatlari muxbirlari Latviya, Shvetsiya, Finlandiya mamlakatlarida bo'lib, tahlil markazlari, ekspertlar va iqtisodchilarning fikrlari bilan qiziqdi.

Gazetada "Konstitutsiyaviy islohot - O'zbekistonning yorqin kelajagi kafolati" sarlavhali maqolada xorijiy ekspertlarning nuqtai nazarlari chop etildi.



Aqliy mehnat jismoniy harakat bilan uyg'unlashtirildi! |10-fev.|

Xalqaro Nordik universitetining ilmsevar yoshlari jismoniy faolliklarini oshirish maqsadida estafeta musobaqasiga kirishdilar.

1-Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi bilan hamkorlikda o'tkazilgan musobaqalarda ko'ngilli talabalar jamoalari o'rtasida estafetali yugurish, arqon tortish bellashuvlari qizg'in kechdi.

292-saylov uchastkasi joylashgan ushbu texnikumda ikki kun davomida **"Referendum-2023"ga** bag'ishlangan sport tadbirlari, qo'shma musobaqalar, estafetalar tashkil etildi.

Sportning qiziqarli turlaridan biri stol tennisi bo'yicha musobaqalarda ham jamoalar katta ishtiyoq bilan ishtirok etishdi. Havaskor tennischilarning texnik va taktik mahoratlari sinaldi.

Musobaqa sport bayramiga aylanib ketdi. Jismoniy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan voleybol musobaqasi o'z atrofida ko'plab ishtirokchilar va tomoshabinlarni jamlab oldi. Jamoalar to'pni raqib tomoniga ildam otib, g'alaba sari intildilar. Sportning bu turi bo'yicha, ayniqsa talaba-qizlarimiz juda faol ishtirok etishdi.

XNU **"Rektor kubogi"** uchun talabalar futbol jamoalari orziqib kutgan musobaqalar qizg'in va hayajonli damlarga boy o'tdi. Chempionlikka da'vogarlar o'z darvozalarini qattiq himoya qilib, g'alaba sari murosasiz bahs olib bordilar.



XNU jamoasi bir oila bo'lib ertangi kun uchun ovoz berdilar! |30-apr.|



"Referendum - 2023: Biz befarq emasmiz!" shiori ostidagi tadbirlarimiz dasturiga ko'ra, universitetimiz bir oila bo'lib, yaqin hududdagi referendum uchastkasiga borildi.

Konstititsiyaviy islohotlar asosida insonning asosiy huquq va erkinliklaridan biri bo'lgan ta'lim olish huquqi mustahkamlanishi jamiyatimiz rivoji uchun ham katta ahamiyatga ega.

XNU tomonidan "Matematika fan olimpiadasi" o'tkazildi |7-may|



Xalqaro Nordik universiteti va Andijon viloyatining Marhamat tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi hamkorligida **"Matematika fan olimpiadasi"** o'tkazildi.



Tumandagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabining marhum matematika fani o'qituvchisi *Faxriddin Xalimov* xotirasiga bag'ishlangan olimpiadada umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari ishtirok etdilar.

Muhimi olimpiada g'oliblari bo'lgan bitiruvchi-yoshlarga keng imkoniyatlar eshigi ochilib, oliy ta'lim muassasasiga kirish imtiyozlari taqdim etildi.

Jumladan, olimpiadada 11-sinflar bo'yicha 1-o'rin sohibi bo'lgan 31-DIMI o'quvchisi Arofatxon Maxsataliyeva Xalqaro Nordik universitetiga grant asosida o'qishga qabul qilindi.



20 nafar g'olib o'quvchiga esa Xalqaro Nordik universitetiga shartnoma asosida imtihonsiz o'qishga kirish imtiyozi berildi.

Shuningdek, 20 nafar ishtirokchiga 1 mln so'mlik vaucher hamda OTMga suhbat asosida o'qishga kirish imkoniyatlari taqdim etildi.

Ta'lim integratsiyalashuvi doirasida memorandumlar imzolandi

Finlandiyada malaka oshirib qaytgan delegatsiya a'zolari – 10 ta OTM vakillari Xalqaro Nordik universitetida bo'ldilar.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Chirchiq va Jizzax davlat pedagogika universitetlari, Andijon, Namangan, Qo'qon, Buxoro, Navoiy, Nukus, Shahrisabz davlat pedagogika institutlari mas'ullari bilan muzokara o'tkazilib, o'zaro hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Kelgusida bu OTMLar bilan fan, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni birlashtirish, ilmiy salohiyat va amaliy tajribalardan foydalanib, samarali muhit yaratishga kelishildi.



Innovatsion yechimlar - ta'lim samaradorligi ASOSI |8-may|

Universitetimiz rahbariyati va **"Sciencetech Solution"** kompaniyasi vakillari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Kompaniya direktori Shuhrat Akbarov o'z taqdimoti orqali XNU talabalari uchun SAP dasturi bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish imkoniyatlari, **"IT Park Uzbekistan"** tomonidan yaratilgan imtiyozlar, raqamli tranformatsiyaning eng yaxshi amaliyotlarini yaratish va joriy etish, g'oyalar almashish va hamkorlik orqali yuqori natijalarga erishish borasida takliflarini ilgari surdi.

Uchrashuvda o'zaro hamkorlikda ta'lim jarayonini boshqarishning innovatsion yechimlarini ishlab chiqish va tatbiq etishga kelishildi.



Amerika universitetlari bilan hamkorlik o'rnatiladi |11-may|

Xalqaro Nordik universiteti Boshqaruv kengashi raisi Alisher Jo'rayev Amerika Qo'shma Shtatlarining favqulodda va muxtor elchisi Jonathan Henick bilan uchrashdi.

Uchrashuvda oliygohda qisqa muddat davomida amalga oshirilgan ishlar va universitet faoliyatiga oid muhim rejalar xususida so'z bordi. Kelajakda AQSH universitetlari bilan hamkorlik qilish istiqbollari haqida suhbatlashildi.



Fin kompaniyalarining O'zbekistondagi faoliyati kengayadi |15-may|



Xalqaro Nordik universitetiga Finlandiyaning "East Office of Finnish Industries Oy" kompaniyasining tajribali kommunikatori, loyihalar menejeri Sanna Hentunen xonim tashrif buyurdi.


Tashrif davomida universitet rahbariyati bilan XNU orqali O'zbekistonda fin kompaniyalarining faoliyatini yo'lga qo'yish va yangi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha muzokaralar o'tkazdi.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi bilan hamkorlik memorandumini imzolandi |18-may|

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida **"Yangi O'zbekiston yoshlari – kelajagimiz poydevori"** shiori ostida uchrashuv o'tkazildi.

Unda Xalqaro Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulov, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi direktori A.Ubbiyev, **"Yangi asr universiteti"** nodavlat ta'lim muassasasi rektori Q.Zahidov, O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining xalq diplomatiyasi markazi direktori Q.Sobirovlar o'rtasida o'zaro muzokaralar bo'lib o'tdi.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi M.Komilov va Xalqaro Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulov o'rtasida Memorandum imzolandi. Kelgusida ilm-fanni rivojlantirish, fundamental, innovatsion va amaliy loyihalarni amalga oshirishga korporativ hamkorlikka kelishildi.



"Eng yaxshi video-monolog ko'rik-tanlovi g'oliblari aniqlandi!"

UNI NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

"ENG YAXSHI VIDEO-MONOLOG"

9-MAY - XOTIRA VA QADRLASH KUNI MUNOSABATI BILAN O'TKAZILGAN KO'RIK-TANLOV

1-O'RIN
JONBOYEVA MUNISA
MUS-123 guruh talabasi

2-O'RIN
NORBIBI XALILOVA
MUS-123 guruh talabasi

3-O'RIN
TASHANOVA DILAFRUL
1-MLS-22 guruh talabasi

www.nordicuniversity.org

9-may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan o'tkazilgan **"Eng yaxshi video-monolog"** ko'rik-tanlovi juda qizg'in kechdi.

Tanlovning 1-bosqichida saralab olingan videolar 2-bosqichida ochiq ovozga qo'yildi. E'tiboringizga eng ko'p ovoz to'plagan talabalarimiz nomlarini havola etamiz!

1-o'rin - Munisa Jonboyeva, MUS-123 guruh talabasi;

2-o'rin - Norbibi Halilova, MUS-123 guruh talabasi;

3-o'rin - Dilafruz Tashanova, 1-MLS-22 guruh talabasi.

Ko'rik-tanlovga material taqdim etgan barcha faol talabalarimizga o'z minnatdorchiligimizi bildiramiz!

Finlandiyada "Work and Travel": professionallik va daromad sari yo'li |20-may|

Xalqaro Nordik universiteti talabalari fakultet dekani Elshod Umarov boshchiligida ilk marta Finlandiyaga mamlakatimizdan **"Work&Travel"** dasturi orqali borishga muvaffaq bo'ldilar.



XNuning strategik hamkori bo'lgan Kareliya amaliy fanlar universiteti **Prezidenti Petri Raivoning** sa'y-harakati bilan ishlab chiqilgan dastur asosida ushbu tashrifni amalga oshirishga erishildi.

XNuning strategik hamkori bo'lgan Kareliya amaliy fanlar universiteti **Prezidenti Petri Raivoning** sa'y-harakati bilan ishlab chiqilgan dastur asosida ushbu tashrifni amalga oshirishga erishildi.

Finlandiyaga tashrif buyurgan talabalarimizni Kareliya UAS ko'p tarmoqli xalqaro va innovatsion universitet Prezidenti Petri Raivo kutib oldi.

Joensuu munisipalitetida joylashgan universitetning ilg'or tajribalari, innovatsion ta'lim modellari, Finlandiyada ta'lim, daromadli ishlar va sayohat borasida kerakli hamda qiziqarli suhbatlar qilindi.

Xotira uyg'onsa go'zaldir... |20-may|



Xalqaro Nordik universiteti va Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi hamkorligida Ochildimurod Miriy nomidagi 2-IDUMda **"Uch avlod uchrashuvi"** tashkil etildi. Ta'bir joiz bo'lsa, bu uchrashuv ustozlar, do'stlar diydori bilan ko'ngillarga quvonch ulashdi.

Ustozlarga cheksiz ta'zim va ehtirom, sinfdosh-do'stlar diydorlashuvi, qimmatli xotiralar yodi, ko'zlarda qalqigan quvonch yoshlari... Uchrashuv barchaga ana shunday ajib ruh bag'ishladi...



Uchrashuvda 2-o'rta maktabni 30 yil avval, ya'ni 1993-yilda tamomlagan, ayni damda iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida mehnat qilayotgan sobiq bitiruvchilar hamda ularning ustozlari – hozirda nafaqada bo'lgan faxriy-muallimlar, joriy yilda maktabni bitirayotgan 11-sinf o'quvchilari hamda ularga ta'lim berayotgan pedagog-o'qituvchilar ishtirok etdilar.

Xotira uyg'onsa go'zaldir... |20-may|

Jumladan, maktabning sobiq bitiruvchisi - Xalqaro Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulov, Kattaqo'rg'on shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi Gavhar Alimova, "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati bosh mutaxassisi Nargiza Shamsiddinova, shahar Xalq qabulxonasi bo'limi boshlig'i Xamratosh Shodiyeva va faxriy ustozlar ishtirok etdilar.

"Uch avlod uchrashuvi"da 2-maktab sobiq bitiruvchilarning qalb so'zlari tinglandi.

Xususan, Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov **"Oliy ta'lim imkoniyatlari, raqobatbardosh kadrlarga qo'yilayotgan talablar, muvaffaqiyatga erishishning 10 qoidasi"** mavzusida bitiruvchi-o'quvchilar uchun motivasion trening o'tkazdi.

Universitet rektori maktabni a'lo baholarga bitirgan eng namunali o'quvchi Luiza Xayrullayevaga universitetga grant asosida o'qishga kirish imkonini beruvchi vaucherni topshirdi.

"Uch avlod uchrashuvi"da el hurmatidagi faxriy o'qituvchilar, sobiq bitiruvchilar 11-sinfni bitirayotgan o'quvchilarga hayotiy saboqlar berdilar.



Madaniy xilma-xillik - talabalarimiz talqinida |23-may|

Universitetimizda Xorijiy tillar kafedrasidan tashkil etilgan "Tillar festivali" chet tillari va dunyo xalqlari madaniyatlarining o'ziga xos namoyishiga aylanib ketdi.

Bayramda talabalar xorijiy tillardagi badiiy ifoda qobiliyatlarini keng namoyish etdilar. Shuningdek, o'zlari o'rgangan o'zbek, rus, fin, ingliz va hind madaniyati merosi va an'alarini tengdoshlari bilan baham ko'rdilar.

Sahnada talabalarimiz milliy raqslar, ilhomlantiruvchi spektakllar va qo'shiqlar ijro etdilar. Anjuman ishtirokchilari xorijiy qadriyatlar bilan keng tanishdilar. Festival universitetimizda o'zaro do'stlik munosabatlarini yanada mustahkamladi.



Surxondaryo ta'lim delegatsiyasi – Finlandiyada |25-may|

XNU va Surxondaryo viloyati hokimligi hamkorligida bir guruh ta'lim tizimi vakillari uchun Finlandiyada ikki haftalik malaka oshirish kursi tashkil etildi.

Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Ilhom Safarov boshchiligidagi ta'lim delegatsiyasi fin ta'lim muassasalarida o'quv-amaliy treninglarda tajriba orttirdilar.



Xalqaro Nordik universiteti Ilmiy seminarida ilk himoya ishi yoqlandi |27-may|



XNU huzuridagi **08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”** ixtisosligi bo'yicha ilmiy seminarida **Qobiljon Isayev** Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (**PhD**) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi ishini himoya qildi.

Ma'ruzachi **"Ko'zi ojizlar ishtirokidagi sanoat korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirish istiqbollari"** mavzusidagi himoya ishining dolzarbligi, tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosalar va ishlab chiqilgan ilmiy, amaliy tavsiyalar bilan batafsil tanishtirdi.

Ilmiy seminarida tadqiqot ishi savol-javoblar asosida keng muhokama etildi va munosib yoqlandi.



Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili XNUGa tashrif buyurdi |28-may|



Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili **Terhi Hakala** xonimning universitetimiz rahbariyati bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Nufuzli mehmon bilan uchrashuvda yoshlar huquqlari, ta'lim va turizm yo'nalishlarida hamkorlik dastur va loyihalari, iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar sohasida ko'p qirrali hamkorlik kabi xalqaro ahamiyatga molik qator masalalar yuzasidan fikr almashildi.



Ma'lumot o'rnida, **Terhi Hakala** xonim uzoq yillik faoliyati davomida Finlandiyaning Jenevadagi BMT tuzilmalaridagi vakolatxonasi rahbari bo'lgan. Finlandiya Tashqi ishlar vazirligining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha departamentlarini boshqargan. 2021-yildan buyon Yevropa Ittifoqining maxsus vakilidir.

Helsinki kida intensiv trening tashkil etildi |29-may|

Xalqaro Nordik universiteti Finlandiyaning Helsinki universiteti Qonun ustuvorligi markazi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili - Ombudsman, Biznes-ombudsman va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti vakillaridan iborat delegatsiyaning Finlandiyaga o'quv tashrifituv tashkil etdi.

Ular Helsinki universitetida bo'lib, Finlandiyaning qonun ustuvorligi, erkinlik va farovonlikning barcha uchun barobarligini ta'minlash, rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikning qonuniy asoslarini kuchaytirish borasidagi boy tajribasiga oid qator mavzulardagi seminar-treningda qatnashdilar. Yurtimiz delegatsiyasi a'zolari fin mutaxassislari bilan fikr va tajriba almashishdi.



XNUda BMTning O'zbekistondagi jamoasi bilan trening o'tkazildi |30-may|

Trening/sessiyaga BMTning Toshkentdagi Axborot byurosi Kommunikatsiyalar bo'yicha rahbari Anvar Meliboyev moderatori qildi.

Interaktiv o'tgan treningda talabalar faol ishtirok etib, 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari va ularga erishishda BMTning hissasi, global muammolar va ularning yechimlari borasida o'zaro fikr-mulohazalar almashdilar. Yoshlarning jamiyat rivojiga daxldor masalalardan xabardorlik darajasi oshirildi.



Sizni Xalqaro Nordik universiteti rektori eshitadi !

Xalqaro Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulovning professor-o'qituvchilar, xodimlar, talabalar va ularning ota-onalari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotini amalga oshirish maqsadida virtual qabulxona boti faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Ta'lim tizimiga oid, o'quv, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda uchraydigan muammolarning oldini olish, universitetni yaqin kelajakda yanada rivojlantirish, faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif, tavsiyalar va savollar bilan telegram ijtimoiy tarmog'ida XNU rektoriga **@Sh_Mustafakulov_bot** orqali murojaat qilish mumkin.

Takliflar shaxsan rektor tomonidan o'rganib chiqiladi.



INTILGANGA TOLE YOR!

XNUda BMTning O'zbekistondagi jamoasi bilan trening o'tkazildi |30-may|

Trening/sessiyaga BMTning Toshkentdagi Axborot byurosi Kommunikatsiyalar bo'yicha rahbari Anvar Meliboyev moderatoriqlik qildi.

Interaktiv o'tgan treningda talabalar faol ishtirok etib, 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari va ularga erishishda BMTning hissasi, global muammolar va ularning yechimlari borasida o'zaro fikr-mulohazalar almashdilar. Yoshlarning jamiyat rivojiga daxldor masalalardan xabardorlik darajasi oshirildi.



Sizni Xalqaro Nordik universiteti rektori eshitadi !

Xalqaro Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulovning professor-o'qituvchilar, xodimlar, talabalar va ularning ota-onalari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotini amalga oshirish maqsadida virtual qabulxona boti faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Ta'lim tizimiga oid, o'quv, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda uchraydigan muammolarning oldini olish, universitetni yaqin kelajakda yanada rivojlantirish, faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif, tavsiyalar va savollar bilan telegram ijtimoiy tarmog'ida XNU rektoriga **@Sh_Mustafakulov_bot** orqali murojaat qilish mumkin.

Takliflar shaxsan rektor tomonidan o'rganib chiqiladi.



INTILGANGA TOLE YOR!



Xalqaro Nordik universiteti missiyasi – zamonaviy bilimlarni berish orqali talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularni raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali jamiyat muammolarini yechishga ko'maklashish, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va globallashtirish sharoitida ta'lim eksportini oshirishdan iborat!



@nordic_edu



www.nordicuniversity.org